DAVLAT AXBOROT TIZIMLARIDA MUHIM INFRATUZILMA OBYEKTLARINI ANIQLASHNING DOLZARB MASALALARI

Mahmudov Mirshod Bahodir o‘g‘li
E-mail: mirshodmakhmudov0515@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada davlat axborot tizimlarida muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini aniqlashning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Mavjud identifikatsiya jarayonining tashkiliy-idoraviy mezonlarga asoslanganligi va tizimlarning real ahamiyati hamda ishdan chiqish oqibatlarini yetarli darajada hisobga olmasligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, risklarga asoslangan tasniflash yondashuvi asosida muhim infratuzilma obyektlarini aniqlashning yagona milliy metodologiyasini ishlab chiqish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *davlat axborot tizimlari, muhim axborot infratuzilmasi, kiberxavfsizlik, kiberhujum, risklarni baholash, axborot xavfsizligi, raqamli transformatsiya, infratuzilma obyektlari.*

Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashishi davlat boshqaruvi, moliya, energetika va boshqa strategik sohalarda axborot tizimlaridan foydalanish miqyosini keskin oshirdi. Shu bilan birga, davlat axborot resurslariga qaratilgan kiberhujumlarning soni va murakkabligi ham ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-martdagi PF-38-son farmoni bilan tasdiqlangan 2026–2030-yillarga mo'ljallangan Kiberxavfsizlik strategiyasida davlat organlarining axborot tizimlari va muhim axborot infratuzilmasi (MAI) obyektlarini kibertahdidlardan himoya qilish tizimini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, amaliyotda barcha davlat axborot tizimlarini bir xil darajada muhim deb hisoblash mumkin emas. Ularning ba'zilari uzilgan taqdirda milliy miqyosda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lsa, boshqalari nisbatan lokal xususiyatga ega. Afsuski, amaldagi tartibda davlat axborot tizimlarini identifikatsiya qilish asosan tashkiliy-idoraviy mezonlarga (tizim qaysi vazirlikka tegishli ekanligiga) tayanadi, ularning real ahamiyati, tizimlararo bog'liqligi va ishdan chiqish oqibatlarining og'irligi izchil baholanmaydi. Bu holat "Kiberxavfsizlik

to'g'risida"gi Qonun loyihasi muhokamasida ham davlat axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlarining identifikatsiya qilinmagan va tasdiqlanmagan holda qolayotgani sifatida alohida ta'kidlangan edi.

Muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini aniq va ob'ektiv mezonlar asosida identifikatsiya qilmaslik bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi: cheklangan moliyaviy va kadrlar resurslari ustuvorliksiz taqsimlanadi, audit va monitoring barcha tizimlarga bir xil chastotada yo'naltiriladi, natijada eng muhim obyektlarga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Xalqaro tajribada (ISO/IEC 27001, NIST SP 800-53, Yevropa Ittifoqining EPCIP dasturi) bu muammo risklarga asoslangan tasniflash tamoyili orqali hal etiladi, unda har bir axborot tizimi ta'sir darajasi bo'yicha baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda davlat axborot tizimlarini himoyalash samaradorligini oshirish uchun, avvalo, muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini ilmiy asoslangan mezonlar asosida identifikatsiya qilish va tasniflashning yagona milliy metodologiyasini ishlab chiqish hamda uni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash zarur. Bu esa Kiberxavfsizlik strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, PF-38-son, 2026-yil 10-mart.

2. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni.

3. ISO/IEC 27001:2022. Information security, cybersecurity and privacy protection — Information security management systems — Requirements.